

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL  
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

## Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                            |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....                              | 9   |
| <b>Nematova Dilnoza Azamatovna</b>                                                                                                                         |     |
| TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....                                              | 15  |
| <b>Erdonayev Aliqul Xalimovich</b>                                                                                                                         |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ .....      | 23  |
| <b>Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи</b>                                                                                                                  |     |
| SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....                                                | 29  |
| <b>Bazarova Mamlakat Supiyevna</b>                                                                                                                         |     |
| XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....                                     | 33  |
| <b>Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.</b>                                                                                                       |     |
| HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....                                            | 44  |
| <b>Toshov Mirzabek Hakimovich</b>                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH .....                                                                            | 50  |
| <b>O'rinova Umida Qodirjonovna</b>                                                                                                                         |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....         | 54  |
| <b>Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod</b>                                                                                              |     |
| TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....   | 64  |
| <b>Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich</b>                                                                                                                     |     |
| IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH..... | 69  |
| <b>To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop</b>                                                                                       |     |
| СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....                        | 80  |
| <b>Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин</b>                                                                                                                  |     |
| LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI .....                                                                                          | 90  |
| <b>Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana</b>                                                                                                              |     |
| TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....                                                                                     | 99  |
| <b>Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....             | 107 |
| <b>Homidov Baxtiyor Rahimberdievich</b>                                                                                                                    |     |
| UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI .....                             | 114 |
| <b>Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon</b>                                                                                                              |     |
| PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....                                      | 122 |
| <b>Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich</b>                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI<br>BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI .....                               | 129 |
| <b>G'iyosov Ilxom Karimovich</b>                                                                                                                                    |     |
| KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING<br>SAMARALI MEXANIZMLARI .....                                                           | 137 |
| <b>Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon</b>                                                                                                                      |     |
| DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI .....                                                                                  | 142 |
| <b>Gadoyeva Nilufar Erkinovna</b>                                                                                                                                   |     |
| KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING<br>TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH .....                                                 | 148 |
| <b>Ikramova Nasiba Axmadovna</b>                                                                                                                                    |     |
| TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....                                                                            | 153 |
| <b>Mizamova Umida Jamoliddin qizi</b>                                                                                                                               |     |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA<br>PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) .....                   | 158 |
| <b>Ibragimov Aziz Turayevich</b>                                                                                                                                    |     |
| TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC)<br>TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI .....                               | 164 |
| <b>Xolmatov Numonjon Meliboyevich</b>                                                                                                                               |     |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ<br>ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ<br>РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО ..... | 171 |
| <b>Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна</b>                                                                                                                            |     |
| RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON<br>ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....                                                      | 181 |
| <b>Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon</b>                                                                                                                       |     |
| MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI<br>OSHIRISH YO'LLARI.....                                                            | 186 |
| <b>Ikromov Elyor Ibodulloyevich</b>                                                                                                                                 |     |
| TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI<br>JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....     | 193 |
| <b>Yusupova Nigina Djurayevna</b>                                                                                                                                   |     |
| TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING<br>TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....      | 199 |
| <b>O'sarov Abdulla Davronqulovich</b>                                                                                                                               |     |
| TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV<br>XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                             | 207 |
| <b>Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li</b>                                                                                                                             |     |
| "NAVOIY KMK" AJDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY-<br>IQTISODIY KOMPONENTLARI.....                                                    | 212 |
| <b>Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud</b>                                                                                                                       |     |



# “NAVOIY KMK” AJDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIIY-IQTISODIY KOMPONENTLARI

**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna, PhD**

Toshkent davlat transport universiteti

“Transport iqtisodiyoti” kafedrası dotsenti

E-mail: [kurbanovanisoxon@gmail.com](mailto:kurbanovanisoxon@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-7568-4687

**Masharipov Ma’sud Numanjonovich, DSc**

Toshkent davlat transport universiteti professori

E-mail: [masud.masharipovv89@gmail.com](mailto:masud.masharipovv89@gmail.com)

ORCID: 0000-0002-8142-2381

Scopus ID: 57224741273

**Annotatsiya.** Maqolada “Navoiy KMK” AJda innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy komponentlari tadqiq etilgan. Innovatsion faoliyat texnologik yangilanish, resurs tejamkorligi, raqamli boshqaruv, yashil iqtisodiyot va loyiha boshqaruvi o’rtasidagi uzviy bog’liqlik sifatida talqin qilinadi. Korxonada innovatsion mexanizm samaradorligini oshirishda tashkiliy tuzilma, investitsion qarorlar, raqamli monitoring, energiya tejamkorligi va ekologik rejalashtirishning o’rni asoslangan. Maqolada innovatsion faoliyatni kompleks boshqarish konchilik korxonalarining barqaror raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omil sifatida ko’rsatilgan.

**Kalit so’zlar:** Navoiy KMK, innovatsion faoliyat, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, raqamli transformatsiya, loyiha boshqaruvi, yashil texnologiyalar, konchilik sanoati.

**Abstract.** The article examines the organizational and economic components of the mechanism for developing innovative activity at Navoi Mining and Metallurgical Company JSC. Innovative activity is interpreted as an integrated relationship between technological modernization, resource efficiency, digital management, the green economy, and project management. The role of organizational structure, investment decision-making, digital monitoring, energy efficiency, and environmental planning in improving the effectiveness of the innovation mechanism is substantiated. The article demonstrates that the integrated management of innovative activity is an important factor in ensuring the sustainable competitiveness of mining enterprises.

**Keywords:** Navoi Mining and Metallurgical Company, innovative activity, organizational and economic mechanism, digital transformation, project management, green technologies, mining industry.

**Аннотация.** В статье исследованы организационно-экономические компоненты механизма развития инновационной деятельности в АО «Навоийский горно-металлургический комбинат». Инновационная деятельность рассматривается как взаимосвязанная система технологической модернизации, ресурсосбережения, цифрового управления, зелёной экономики и проектного управления. Обоснована роль организационной структуры, инвестиционных решений, цифрового мониторинга, энергоэффективности и экологического планирования в повышении эффективности инновационного механизма предприятия. В статье комплексное управление инновационной деятельностью рассматривается как важный фактор обеспечения устойчивой конкурентоспособности предприятий горнодобывающей промышленности.

**Ключевые слова:** Навоийский горно-металлургический комбинат, инновационная деятельность, организационно-экономический механизм, цифровая трансформация, проектное управление, зелёные технологии, горнодобывающая промышленность.



## KIRISH

Zamonaviy konchilik sanoatida innovatsion faoliyat endilikda faqat yangi uskuna xarid qilish yoki ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish bilan cheklanmaydi. U korxonaning boshqaruv yondashuvi, resurslardan foydalanish madaniyati, texnologik qarorlar qabul qilish tizimi va ekologik mas'uliyatini qamrab oluvchi murakkab tashkiliy-iqtisodiy jarayonga aylanmoqda. Ayniqsa, yirik kon-metallurgiya majmualarida innovatsion rivojlanish ishlab chiqarish samaradorligi, tannarx, energiya sarfi, ekologik xavfsizlik, raqamli monitoring va investitsion jozibadorlik bilan bevosita bog'liqdir.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ O'zbekiston sanoat tizimida strategik ahamiyatga ega bo'lgan yirik korxonalardan biri bo'lib, uning innovatsion rivojlanish darajasi nafaqat korxona miqyosidagi iqtisodiy natijalarga, balki mamlakatning sanoat modernizatsiyasi, eksport salohiyati va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi.<sup>1</sup> Bunday korxonada innovatsion faoliyatni rivojlantirish oddiy texnik chora emas, balki ishlab chiqarish, boshqaruv, moliya, ekologiya va raqamli transformatsiya o'rtasidagi tizimli uyg'unlikni talab qiladi [1].

Konchilik sanoatida innovatsion faoliyatning murakkabligi shundaki, bu tarmoq yuqori kapital sig'imi, uzoq investitsiya sikli, katta texnologik risk, energiya va suvga kuchli bog'liqlik hamda ekologik majburiyatlarning ortib borishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli innovatsiyalarni samarali boshqarish uchun faqat alohida loyihalar yetarli emas.<sup>2</sup> Korxonada innovatsion g'oyani aniqlash, baholash, moliyalashtirish, joriy etish, monitoring qilish va natijani iqtisodiy baholashga xizmat qiluvchi yaxlit mexanizm zarur [2].

Innovatsion faoliyat mexanizmi deganda korxonada yangiliklarni yaratish, tanlash, moliyalashtirish, ishlab chiqarishga tatbiq etish va iqtisodiy natijaga aylantirishni ta'minlovchi tashkiliy, iqtisodiy, texnologik, raqamli va ekologik komponentlar tizimi tushuniladi. Bunday mexanizm samarali ishlashi uchun boshqaruv qarorlari faktlarga, real vaqt ma'lumotlariga, iqtisodiy hisob-kitoblarga va strategik maqsadlarga asoslanishi kerak.

Maqolaning maqsadi “Navoiy KMK” AJda innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy komponentlarini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun innovatsion mexanizmning nazariy mazmuni ochib beriladi, konchilik korxonalarida innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtiriladi, NKMK misolida tashkiliy-iqtisodiy komponentlar tahlil qilinadi hamda raqamli va yashil transformatsiya sharoitida innovatsion mexanizmni takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyat nazariyasida Schumpeter yangilikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlaydi. Uning yondashuvida innovatsiya yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor, yangi xomashyo manbai yoki yangi tashkiliy shakl orqali iqtisodiy tizimda sifat o'zgarishini yuzaga keltiradi [3]. Bu fikr konchilik sanoati uchun ham dolzarbdir, chunki bu tarmoqda innovatsiya faqat yangi texnika emas, balki resurslardan foydalanish modeli, ishlab chiqarish jarayoni va boshqaruv tizimining yangilanishini anglatadi.<sup>3</sup>

Freeman innovatsion rivojlanishni milliy innovatsion tizim doirasida talqin qilib, texnologik o'zgarishlar korxona, davlat, ilmiy muassasalar va bozor o'rtasidagi hamkorlikka bog'liqligini asoslaydi [4]. Konchilik sanoatida ham innovatsion rivojlanish faqat korxona ichki imkoniyatlari bilan emas, balki ilmiy-tadqiqot institutlari, muhandislik markazlari, davlat siyosati, ekologik standartlar va investitsiya infratuzilmasi bilan bog'liq holda shakllanadi.<sup>4</sup> Drucker innovatsiyalarni boshqaruv intizomi sifatida ko'rib, yangilik yaratish jarayoni tasodifiy emas, balki tizimli tahlil, imkoniyatlarni aniqlash va boshqaruv qarorlariga asoslangan jarayon ekanini ta'kidlaydi [5].

Porter va van der Linde ekologik talablar innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkinligini asoslagan. Ularning fikricha, ekologik standartlar korxona uchun faqat xarajat emas, balki resurslardan tejimli foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va raqobat ustunligini yaratish imkoniyatidir [6]. Bu yondashuv kon-metallurgiya sanoatida yashil texnologiyalarni innovatsion faoliyatning ajralmas qismi sifatida ko'rishga imkon beradi.

Tidd va Bessant innovatsion boshqaruvda g'oyani yaratish, tanlash, joriy etish va qiymatga aylantirish bosqichlarini ajratib ko'rsatadi [7]. Bunday bosqichli yondashuv “Navoiy KMK” AJ kabi yirik sanoat korxonalari uchun muhim, chunki korxonada innovatsion loyiha ishlab chiqarish xavfsizligi, texnologik uzluksizlik, moliyaviy qaytim va ekologik talablar bilan mos bo'lishi kerak.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda konchilik korxonalarining innovatsion rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligi va investitsion faoliyatini baholash masalalari o'rganilgan. Xususan, konchilik sanoatida texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, oltin ishlab chiqarish samaradorligi, metallurgiya korxonalarida xarajatlarni boshqarish va innovatsion rivojlanish darajasini baholash bo'yicha ilmiy yondashuvlar mavjud [8].

1 OECD. (2021). *Mining and green growth in the EECCA region*. OECD Publishing.

2 World Bank. (2020). *Minerals for climate action: The mineral intensity of the clean energy transition*. World Bank Group.

3 Schumpeter, J. A. (1934). *The theory of economic development*. Harvard University Press.

4 Freeman, C. (1987). *Technology policy and economic performance: Lessons from Japan*. Pinter Publishers.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, tashkiliy-iqtisodiy modellashtirish, omilli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy talqin va konseptual yondashuv usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil orqali innovatsion faoliyat korxonaning alohida funksiyasi emas, balki ishlab chiqarish, texnologiya, moliya, ekologiya, inson kapitali va raqamli boshqaruvni birlashtiruvchi mexanizm sifatida o'rganildi.

Tashkiliy-iqtisodiy modellashtirish usuli innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmini komponentlar kesimida tasvirlash imkonini berdi. Ushbu yondashuvga ko'ra, innovatsion mexanizm quyidagi asosiy bloklardan iborat bo'lishi mumkin:



1-rasm. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy modeli<sup>5</sup>

Mazkur modelda strategik boshqaruv innovatsion faoliyatning umumiy yo'nalishini belgilaydi. Innovatsion loyiha portfeli qaysi texnologiya, jarayon yoki boshqaruv yechimi korxona uchun ustuvorligini aniqlaydi. Raqamli monitoring esa loyiha natijalarini real vaqt rejimida kuzatish, nosozliklarni aniqlash va qarorlarni dalillarga asoslash imkonini beradi. Resurs tejamkor va yashil texnologiyalar blokida innovatsiya korxonaning tannarx, ekologik yuklama va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi [9].

Tadqiqotda innovatsion mexanizm samaradorligini baholash uchun komponentli yondashuv qo'llanildi. Unga ko'ra, korxonadagi innovatsion faoliyat quyidagi yo'nalishlar orqali tahlil qilinadi:

1-jadval.

Innovatsion mexanizmning asosiy komponentlari<sup>6</sup>

| № | Komponent                 | Mazmuni                                                   | Kutiladigan iqtisodiy natija            |
|---|---------------------------|-----------------------------------------------------------|-----------------------------------------|
| 1 | Tashkiliy komponent       | Innovatsion qarorlar, loyiha ofisi, mas'ul bo'linmalar    | Boshqaruv tezligi va muvofiqlik oshadi  |
| 2 | Moliyaviy komponent       | Investitsiya, xarajat, qaytim, tejalgan resurs qiymati    | Innovatsion loyiha iqtisodiy asoslanadi |
| 3 | Texnologik komponent      | Uskunalar, avtomatlashtirish, energiya tejamkor yechimlar | Tannarx va yo'qotishlar kamayadi        |
| 4 | Raqamli komponent         | SCADA, monitoring, ma'lumotlar paneli, texnik diagnostika | Qarorlar real ma'lumotga asoslanadi     |
| 5 | Ekologik komponent        | Chiqindi, suv, emissiya, rekultivatsiya nazorati          | Ekologik xarajatlar va risklar kamayadi |
| 6 | Inson kapitali komponenti | Mutaxassislar malakasi, innovatsion madaniyat             | Texnologiyani o'zlashtirish tezlashadi  |

Ushbu komponentlar alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda ishlaydi. Masalan, raqamli monitoring bo'lmasa, energiya tejamkor texnologiyaning real samarasi aniq o'lchanmaydi; moliyaviy baholash bo'lmasa,

5 Manba: Mualliflar ishlanmasi

6 Manba: Mualliflar ishlanmasi



innovatsion loyiha investitsiya sifatida asoslanmaydi; tashkiliy muvofiqlik bo'lmasa, loyiha ishlab chiqarish jarayonida sekinlashadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari "Navoiy KMK" AJda innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmini uch darajada ko'rish zarurligini ko'rsatadi: strategik, tashkiliy va operatsion daraja. Strategik darajada innovatsion faoliyat korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, resurs tejamkorligi va yashil transformatsiya maqsadlari bilan bog'lanadi. Tashkiliy darajada innovatsion loyihalarni tanlash, muvofiqlashtirish, moliyalashtirish va nazorat qilish tizimi shakllanadi. Operatsion darajada esa aniq texnologiyalar, raqamli yechimlar, energiya tejamkor uskunalar va ekologik monitoring vositalari ishlab chiqarishga tatbiq etiladi.

"Navoiy KMK" AJ kabi yirik sanoat korxonasi uchun innovatsion faoliyatning muhim jihatlaridan biri — uning natijasini aniq iqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'lashdir. Korxonada innovatsion loyiha faqat "zamonaviy" bo'lgani uchun emas, balki tannarxni pasaytirgani, ishlab chiqarish uzluksizligini oshirgani, energiya sarfini kamaytirgani, ekologik xavfni pasaytirgani va qo'shimcha qiymat yaratgani uchun muhimdir.

Dissertatsiyada keltirilgan joriy etish natijalariga ko'ra, innovatsion loyihalarni baholash bo'yicha takliflarning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi innovatsion loyihalarni baholash tezkorligini 14 foizga oshirgan va korxonada 2 ta innovatsion loyihani tatbiq etish imkonini bergan. Raqamli transformatsiya strategiyasi bo'yicha takliflar esa qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini bergan. Loyiha boshqaruv ofisini raqamlashtirish bilan bog'liq takliflar tijorat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va tarmoqlararo hamkorlikni oshirishga xizmat qilgan [10]. Bu natijalar innovatsion mexanizmning nazariy emas, amaliy iqtisodiy qiymatga ega ekanini ko'rsatadi.

### 2-jadval.

Innovatsion faoliyat mexanizmining iqtisodiy samaraga ta'sir yo'nalishlari<sup>7</sup>

| Yo'nalish               | Innovatsion yechim                                    | Iqtisodiy samara                      |
|-------------------------|-------------------------------------------------------|---------------------------------------|
| Baholash jarayoni       | Innovatsion loyihalarni indikatsion baholash          | Qaror qabul qilish tezligi oshadi     |
| Raqamli transformatsiya | Uskuna va jarayonlarni monitoring qilish              | Yo'qotishlar kamayadi                 |
| Energiya samaradorligi  | Energiya sarfini nazorat qilish va optimallashtirish  | Tannarx pasayadi                      |
| Loyiha boshqaruvi       | Loyiha ofisi va "call point" mexanizmi                | Muvofiqlik va ijro intizomi kuchayadi |
| Yashil texnologiyalar   | Suv, chiqindi va emissiya nazorati                    | Ekologik xarajatlar kamayadi          |
| Tarmoqlararo hamkorlik  | Innovatsion loyihalarni kooperatsiya asosida yuritish | Qo'shimcha qiymat yaratiladi          |

Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat mexanizmining tashkiliy komponenti, eng avvalo, qaror qabul qilish tizimini tartibga soladi. Yirik kon-metallurgiya korxonasida innovatsion loyiha ko'plab bo'linmalar — ishlab chiqarish, moliya, ekologiya, texnika xavfsizligi, ta'minot, IT va strategik rivojlanish xizmatlari o'rtasida muvofiqlashtiriladi. Agar bu jarayon yagona loyiha boshqaruvi asosida tashkil etilmasa, innovatsion tashabbuslar tarqoq holda qoladi.

7 Manba: [10] manba ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. “Navoiy KMK” AJda innovatsion loyihani boshqarish sikli<sup>8</sup>

Mazkur sikl innovatsion faoliyatni uzluksiz boshqarish imkonini beradi. Ayniqsa, “texnik-iqtisodiy asoslash” va “resurs-ekologik ta’sirni baholash” bosqichlari konchilik sanoati uchun juda muhimdir. Chunki har qanday innovatsion texnologiya ishlab chiqarish xavfsizligi, energiya sarfi, suvdan foydalanish, chiqindi hajmi va iqtisodiy qaytimga ta’sir qiladi.

Raqamli transformatsiya innovatsion mexanizmning markaziy komponentlaridan biridir. Konchilik sanoatida ishlab chiqarish jarayonlari murakkab va uzluksiz bo’lgani sababli qarorlarni faqat davriy hisobotlar asosida qabul qilish yetarli emas. SCADA tizimlari, raqamli sensorlar, energiya monitoringi, texnik diagnostika va ma’lumotlar paneli rahbariyatga real vaqt rejimida vaziyatni ko’rish imkonini beradi. Bu esa nosozliklarni oldindan aniqlash, energiya yo’qotishlarini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi [11].

Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmi konchilik korxonasida alohida loyiha yoki texnik yangiliklar yig’indisi emas, balki boshqaruv tizimining o’zagini tashkil etuvchi kompleks mexanizmdir. Bunday mexanizm samarali bo’lishi uchun u strategik maqsad, iqtisodiy baholash, raqamli monitoring, ekologik rejalashtirish va loyiha boshqaruvi bilan birlashtirilishi kerak.

“Navoiy KMK” AJ misolida bu masala ayniqsa dolzarb. Korxonaning ishlab chiqarish ko’lami katta, texnologik zanjiri murakkab, energiya va resurslarga talabi yuqori. Shuning uchun innovatsion faoliyatni rivojlantirishda faqat texnik yangilanish yetarli emas. Innovatsion loyiha korxonaning iqtisodiy modeli bilan bog’lanishi kerak: u tannarxni pasaytiradimi, energiya sarfini kamaytiradimi, ekologik xavfni qisqartiradimi, ishlab chiqarish uzluksizligini kuchaytiradimi, qo’shimcha qiymat yaratadimi?

Muhokama jarayonida uchta muhim xulosa shakllanadi. Birinchidan, innovatsion mexanizmning tashkiliy komponenti barcha bo’linmalar o’rtasida muvofiqlik yaratmasa, innovatsion tashabbuslarning samaradorligi pasayishi mumkin. Ikkinchidan, moliyaviy-iqtisodiy komponent bo’lmasa, innovatsion loyiha xarajat sifatida qabul qilinadi; aniq baholash tizimi mavjud bo’lsa, u iqtisodiy samara keltiruvchi investitsiya sifatida baholanadi. Uchinchidan, raqamli monitoring bo’lmasa, innovatsion loyiha natijasi aniq o’lchanmaydi va boshqaruv qarorlari subyektiv baholarga tayanib qoladi.

### 3-jadval.

#### Innovatsion mexanizmni takomillashtirish bo’yicha ustuvor yo’nalishlar<sup>9</sup>

| Ustuvor yo’nalish                     | Amaliy mazmuni                                                 | Kutiladigan natija                 |
|---------------------------------------|----------------------------------------------------------------|------------------------------------|
| Loyiha boshqaruv ofisini kuchaytirish | Innovatsion loyihalarni yagona portfelda yuritish              | Ijro intizomi va muvofiqlik oshadi |
| Raqamli monitoringni kengaytirish     | Energiya, suv, uskunalar va ekologik ko’rsatkichlarni kuzatish | Yo’qotishlar tez aniqlanadi        |

8 Manba: Mualliflar ishlanmasi

9 Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



|                                           |                                                               |                                        |
|-------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|----------------------------------------|
| Innovatsion baholash tizimini joriy etish | Moliyaviy, texnologik va ekologik mezonlarni birlashtirish    | Investitsiya qarorlari asoslanadi      |
| Yashil texnologiyalarni ustuvorlashtirish | Energiya, suv va chiqindi bo'yicha tejamkor yechimlar         | Tannarx va ekologik bosim pasayadi     |
| Inson kapitalini rivojlantirish           | Mutaxassislarni raqamli va innovatsion ko'nikmalarga o'qitish | Texnologiyani o'zlashtirish tezlashadi |

Innovatsion faoliyat mexanizmini takomillashtirishda loyiha boshqaruv ofisi alohida ahamiyatga ega. Chunki yirik sanoat korxonasida innovatsion loyihalar ko'pincha turli bo'linmalar manfaatlarini kesishgan joyda amalga oshiriladi. Loyiha ofisi esa texnik, moliyaviy, ekologik va tashkiliy qarorlarni yagona muvofiqlashtirish maydoniga olib keladi. Bu esa “kim mas’ul?”, “qaysi muddatda?”, “qanday natija bilan?”, “qanday iqtisodiy samara beradi?” kabi savollarga aniq javob beradi.

Raqamli transformatsiya esa innovatsion mexanizmga tezkorlik va shaffoflik beradi. Energiya sarfi, suv aylanishi, uskuna yuklamasi, nosozliklar, chiqindi hajmi va ishlab chiqarish ritmi real vaqt rejimida ko'rinadi, innovatsion qarorlar taxmin asosida emas, aniq ma'lumotlar asosida qabul qilinadi. Bu konchilik sanoatida juda muhim, chunki kechikkan qaror ko'pincha qo'shimcha moliyaviy yo'qotishlar, texnologik uzilish yoki ekologik xavfga olib kelishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, “Navoiy KMK” AJda innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmi tashkiliy, moliyaviy, texnologik, raqamli, ekologik va inson kapitali komponentlarining o'zaro uyg'unligiga asoslanishi zarur. Innovatsion faoliyatni faqat texnologik yangilanish sifatida talqin qilish yetarli emas; u korxonaning strategik boshqaruvi, resurs tejamkorligi, yashil iqtisodiyotga moslashuvi va raqamli transformatsiyasi bilan birga qaralishi kerak.

Maqolada asoslangan yondashuvga ko'ra, innovatsion mexanizmning tashkiliy komponenti innovatsion loyihalarni muvofiqlashtirish, loyiha portfelini shakllantirish va mas'uliyatni aniq taqsimlashga xizmat qiladi. Moliyaviy komponent innovatsion loyihaning xarajat, qaytim, tejalgan resurs va qo'shimcha qiymatga ta'sirini baholaydi. Texnologik komponent ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga, raqamli komponent esa monitoring va qaror qabul qilishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Ekologik komponent esa innovatsion faoliyatni yashil iqtisodiyot talablari bilan bog'laydi.

“Navoiy KMK” AJ uchun innovatsion faoliyatni rivojlantirishning maqsadga muvofiq yo'nalishlaridan biri — innovatsion loyihalarni alohida tashabbuslar sifatida emas, balki yagona loyiha boshqaruvi, raqamli monitoring va yashil samaradorlik mezonlari asosida boshqarishdir. Bunday yondashuv ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, texnologik yo'qotishlarni kamaytirish, ekologik risklarni qisqartirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. *Mining and Green Growth in the EECCA Region*. – Paris : OECD Publishing, 2019. – 64 p. – (OECD Green Growth Studies). – DOI: 10.1787/1926a45a-en.
2. Hund K., La Porta D., Fabregas T. P., Laing T., Drexhage J. *Minerals for Climate Action: The Mineral Intensity of the Clean Energy Transition*. – Washington, DC : World Bank, 2020. – 112 p.
3. Schumpeter J. A. *The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle* / translated by R. Opie. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1934. – 255 p.
4. Freeman C. *Technology, Policy, and Economic Performance: Lessons from Japan*. – London : Pinter Publishers, 1987. – 155 p.
5. Drucker P. F. *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles*. – New York : Harper & Row, 1985. – 277 p.
6. Porter M. E., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment–Competitiveness Relationship // *Journal of Economic Perspectives*. – 1995. – Vol. 9, No. 4. – P. 97–118. – DOI: 10.1257/jep.9.4.97.
7. Tidd J., Bessant J. R. *Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change*. – 7th ed. – Hoboken, NJ : Wiley, 2020.
8. Kurbanova M. N. Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2024. – J. 2, № 6. – B. 9–13. – DOI: 10.5281/zenodo.12787217.
9. International Council on Mining and Metals (ICMM). *Mining Principles: Performance Expectations*. – London : ICMM, 2022.
10. Kurbanova M. N. *Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish (Navoiy KMK misolida)* : iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent : Toshkent davlat transport universiteti, 2024. – 61 b.
11. World Economic Forum, Accenture. *Digital Transformation Initiative: Mining and Metals Industry* : White Paper. –



- Geneva : World Economic Forum, 2017. – 36 p.
12. Global Reporting Initiative. *GRI 14: Mining Sector 2024*. – Amsterdam : Global Reporting Initiative, 2024. – (GRI Sector Standard).
  13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2019. – URL: <https://lex.uz/docs/-4539502> (murojaat sanasi: 09.09.2026).
  14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2022. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063> (murojaat sanasi: 09.09.2026).

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)